



## TABIIY FANLAR DARSLARI JARAYONIDA KRITIK FIKRLASHGA O'RGATISHDA INTERFAOL METODLARNI O'RNI

**Atayeva Baxrinisa Abduvaxidovna**

*Sirdaryo viloyat pedagogika markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasini mudiri v.v.b*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf tabiiy fanlar darslari jarayonida o'quvchilarni kritik fikrlashga, yani mustaqili o'z fikrini ifoda eta olgan holda tanqidiy yonashishni interfaol metodlar qo'llash asosida o'rgatish jarayoni "Debat" va "Beshichisi, oltinchisi.....ortiqcha" metodlari asosida ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** tabiiy fan, kritik fikrlash, mustaqil fikr, tanqidiy yondashuv, interfaol metodlar.

## РОЛЬ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ОБУЧЕНИИ КРИТИЧЕСКОМУ МЫШЛЕНИЮ НА УРОКАХ ЕСТЕСТВОЗНАНИЯ

**Атаева Бахриниса Абдувахидовна**

*и.о. заведующего кафедрой дошкольной, начальной и специальной методики обучения Сырдарьинского областного педагогического центра*

**Аннотация.** В данной статье приведены методы обучения учащихся начальных классов критическому мышлению на уроках естествознания, т.е. критическому подходу при высказывании своего мнения на основе использования интерактивных методов таких как «Дебаты», «Пятый, шестой, ..... лишний»

**Ключевые слова:** естествознание, критическое мышление, самостоятельное мышление, критический подход, интерактивные методы.

## THE ROLE OF INTERACTIVE METHODS IN TEACHING CRITICAL THINKING IN SCIENCE LESSONS

**Ataeva Bakhrinisa Abduvahidovna,**

*Acting Head of the Department of Preschool, Elementary and Special Teaching Methods of Syrdarya Regional Pedagogical Centre.*

**Abstract.** This article provided the methods of teaching primary school students critical thinking at the lessons of natural science, i.e. a critical approach in expressing their opinions through the use of interactive methods such as "Debates", "The Fifth/sixth/..... is redundant".

**Key words:** science, critical thinking, independent thinking, critical approach, interactive methods.



O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining "Xalq ta'limi tizimida uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 2022-yil 5-dekabr 372-son buyrug'i asosida pedagog kadrlarni salohiyatini oshirish va zamonaviy metodikalarni targ'ib qilishni rivojlantirishda o'quvchilarni "Kritik fikrlash" (o'z mustaqil fikriga ega bo'lish va uni ifoda etish, masalaga tanqidiy yondashish)ga o'rgatish orqali XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish muhim vazifalardan biridir.

Kritik fikrlashning ilmiy asoslariga ko'ra o'quvchining mustaqil fikrlashga yo'naltirish, o'z fikrini ayta olish orqali berilgan vaziyatga o'z munosabatini bildirish va tanqidiy yondashgan holda yechim variantlarini topa olish vaziyatlari asosiy o'rinni egallaydi. Bularni amalga oshirishda o'quvchilarning psixo-fiziologik qobiliyatlari va yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda interfaol metodlar, mashqlar, topshiriqlarni bajarish asosida kritik fikrlashga yo'naltirish imkoniyatlari mavjud. Quyida interfaol metodlar asosida kritik fikrlashga yo'naltirish jarayonlaridan namunalar keltirib o'tamiz.

Debat-bu usulning maqsadi o'zaro bahs-munozara asosida mukammal yechim variantlarini yuzaga chiqarishdir.

Debat asosida 1-sinf "Tabiiy fanlar" darsida "Kun va tun" mavzusi asosida sinf ikki guruhga birlashtirilib, bir guruh kunning o'quvchiga foydali tomonlarini tasdiqlab o'tishlari, ikkinchi guruh esa tunning o'ziga xos holatlarini ta'kidlab o'tishlari so'raladi.



Har ikkala guruh taqdimotlari eshitilib, umumiy xulosa, fikrlar chiqariladi.

"Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi, ...) ortiqcha" metodi.

O'quvchilarning mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishlarida ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- o'rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish;
- hosil bo'lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo'lgan to'rtta (beshta, oltita, ... ) tushunchaning o'rin olishiga erishish;
- o'quvchilarga mavzuga taalluqli bo'lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;



- o'quvchilarni o'z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o'quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o'tishlari hamda ular o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni asoslashlarini talab etish lozim). Mavzu mohiyatini yorituvchi tushunchalar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni ko'rsata va asoslay olish o'quvchilarda mustaqil fikrlash, shaxsiy yondashuvlarni asoslay olish, shuningdek, tengdoshlarining fikrlari bilan shaxsiy mulohazalarini o'zaro taqqoslash ko'nikmalarini ham shakllantiradi.

Tabiiy fanlar darslarida "Urug' va mevani o'rganamiz!" mavzusida qaysi meva(sabzavot, poliz ekini) ortiqcha ekanligini topish vazifasi beriladi.



1-holat: ananas ortiqcha, chunki u sitrus meva.

2-holat: makkajo'xori ortiqcha, chunki u donli ekin.

3-holat: qizil lavlagi ortiqcha, chunki u yer ostida o'sadi.

4-holat: uzum ortiqcha, chunki u ishkonda o'sadi.

5-holat: tarvuz va oshqovoq ortiqcha, chunki u polozda o'sadi va h.k.

Bu metod asosida o'quvchi o'z fikrni mustaqil bayon etish bilan bir qatorda sheriklarini fikrlariga tanqidiy qarashlarini ham ifoda eta oladilar va o'z fikrlarini isbotlash uchun harakat qiladilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'quvchilarni kritik fikrlashga o'rgatish orqali har bir narsa va voqelikka o'z munosabatini bildira olish, mustaqil o'z fikrini ifoda eta olish, tanqidiy yondashuv asosida yechim topishga yo'naltirishni yuzaga keltira olamiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining "Xalq ta'limi tizimida uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 2022-yil 5-dekabr 372-son buyrug'i



2. K. Suyarov va boshq. Tabiiy fanlar: 1-sinf uchun darslik – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.

3. K. Suyarov [va boshq.]. Tabiiy fanlar: 2-sinf uchun darslik – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.

4. Z. B. Sangirova [va boshq.]. Tabiiy fanlar 3-sinfi uchun darslik – Toshkent, Respublika ta'lim markazi, 2022